

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
QARORI

**SURXONDARYO VILOYATIDA INGICHKA TOLALI PAXTA YETISHTIRISHNI ILMIY ASOSDA AMALGA
OSHIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RSIDA**

Ingichka tolali g'o'zaning respublika janubiy mintaqalari tuproq-iqlim sharoitlariga mos, serhosil, tezpishar, kasallik va zararkunandalarga bardoshli, sanoatbop navlarini yaratish hamda urug'chiligini yo'lga qo'yish, shuningdek, resurs tejaydigan agrotexnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish maqsadida:

1. Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti Surxondaryo ilmiy-tajriba stansiyasi negizida Ingichka tolali paxtachilik ilmiy-tadqiqot instituti (keyingi o'rinlarda — Institut) tashkil etilsin.

2. Quyidagilar Institutning asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari etib belgilansin:

g'o'zaning ingichka tolali yangi navlarini yaratish va ularning birlamchi urug'chiligini tashkil etish;

g'o'zaning ingichka tolali yangi navlarini yetishtirishda tuproq unumdorligini oshirish va resurs tejaydigan agrotexnologiyalardan foydalanish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalarni ishlab chiqish;

qishloq xo'jaligi sohasi uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, shuningdek, g'o'zaning ingichka tolali yangi navlarini yetishtiruvchi subyektlarning malakasini oshirish;

yetakchi mahalliy va xorijiy ilmiy markazlar va ta'lim muassasalari bilan o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish, sohaga mahalliy va xorijiy grantlarni hamda investitsiyalarni jalb etish.

3. Qishloq xo'jaligi vazirligi, Institut:

ikki oy muddatda g'o'zaning turli tuproq-iqlim sharoitlariga mos, tezpishar, serhosil, kasallik va zararkunandalarga bardoshli, tola sifati yuqori bo'lgan ingichka tolali navlarini yaratish hamda ularning birlamchi urug'chiligini tashkil etish bo'yicha bajariladigan yillik maqsadli ilmiy loyihalarni shakllantirib, ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida moliyalashtirish uchun Innovatsion rivojlanish vazirligiga taqdim qilsin;

uch oy muddatda xalqaro moliya institutlarining jalb etilgan mablag'lari hisobidan g'o'zaning turli tuproq-iqlim sharoitlariga mos, tezpishar, serhosil, kasallik va zararkunandalarga bardoshli, tola sifati yuqori bo'lgan ingichka tolali navlarini yetishtirish bo'yicha ko'rgazmali dala maydonlarini barpo etsin.

4. Innovatsion rivojlanish vazirligi Qishloq xo'jaligi vazirligi bilan birgalikda g'o'zaning turli tuproq-iqlim sharoitlariga mos, tezpishar, serhosil, kasallik va zararkunandalarga bardoshli, tola sifati yuqori bo'lgan ingichka tolali navlarini yaratish hamda ularning birlamchi urug'chiligini yo'lga qo'yish, resurs tejaydigan agrotexnologiyalarni ishlab chiqish bo'yicha Institut tomonidan taqdim etilgan ilmiy loyihalarga tanlovlar asosida davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida mablag'lar ajratib borilishini ta'minlasin.

5. Surxondaryo viloyati hokimligi va Qishloq xo'jaligi vazirligining ingichka tolali g'o'za navlarining birlamchi urug'chiligini tashkil etish, zamonaviy ilmiy texnologiyalarni joriy etish uchun Surxondaryo viloyati Angor tumanidagi "Zamin Angor" paxta-to'qimachilik klasteri, Jarqo'rg'on tumanidagi "Jarqo'rg'on Tajriba" hamda Qumqo'rg'on tumanidagi "Ilxombek Raxmon" elita urug'chilik ho'jaliklarida Institutning Ilmiy markazini tashkil etish to'g'risidagi taklifi ma'qullansin.

6. Qishloq xo'jaligi vazirligi, "O'zbekiston paxta-to'qimachilik klasterlari" uyushmasi va Surxondaryo viloyati hokimligi:

hududlarning tuproq-iqlim sharoiti va paxta-to'qimachilik klasterlari talablaridan kelib chiqqan holda 2022-yilda 12 ming gektar maydonga va 2023-yilda 18 ming gektar maydonga g'o'zaning ingichka tolali navlarini joylashtirish;

g'o'zaning ingichka tolali navlarini joylashtirishning har yilgi talabidan kelib chiqib, yetarli miqdorda urug'lik chigitlarni tayyorlab borish choralari ko'rsin.

7. Qishloq xo'jaligi vazirligi, Surxondaryo viloyati hokimligining Institutga qarashli qishloq xo'jaligi ekin maydonida zamonaviy seleksiya usullari yordamida g'o'zaning ingichka tolali navlarini yaratish maqsadida fitotron issiqxonasini tashkil etish to'g'risidagi taklifiga rozilik berilsin. Bunda fitotron issiqxonasini tashkil etish xarajatlari Qishloq xo'jaligi vazirligi tomonidan jalb etilgan xalqaro moliya institutlarining grant mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

8. Ingichka tolali paxtachilik ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini tashkil etish va moddiy-texnika bazasini shakllantirish, ingichka tolali navlarni yaratish sohasida ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" [ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

9. Qishloq xo'jaligi vazirligi ikki oy muddatda:

Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining Ingichka tolali paxtachilik ilmiy-tadqiqot instituti ustavini tasdiqlasin;

Institutni nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan yuqori malakali mutaxassislar bilan to'ldirish choralari ko'rsin;

sohada faoliyat yuritayotgan mahalliy va xorijiy ilmiy-tadqiqot institutlarining genofondida saqlanayotgan g'o'zaning ingichka tolali yovvoyi va yarim yovvoyi turlari hamda nav-namunalaridan seleksiya ishlarida boshlang'ich ashyo sifatida foydalanish uchun o'zaro hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilishini ta'minlasin.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-fevraldagi "Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar tizimi hamda zamonaviy xizmatlar ko'rsatishni yanada rivojlantirish to'g'risida"gi PF-6159-son Farmoni [10-bandi](#) hamda "O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-4975-son qarori [7-bandiga](#) muvofiq, 2021-yil 1-fevraldan boshlab Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi tizimidagi ilmiy tashkilotlar bino va inshootlarini saqlash, shuningdek, ularning xodimlari (ilmiy xodimlardan tashqari) mehnatiga haq to'lash bo'yicha, shuningdek, joriy xarajatlarini moliyalashtirish O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobidan amalga oshirilishi belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

Belgilansinki, Institutning bino va inshootlarini saqlash, xodimlar (ilmiy xodimlardan tashqari) mehnatiga haq to'lash bo'yicha xarajatlarni moliyalashtirish:

2022-yil 1-apreldan boshlab O'zbekiston Respublikasining respublika budjetidan birinchi darajali budjet mablag'larini taqsimlovchi sifatida idoraviy mansubligiga ko'ra tegishli vazirliklar va idoralarga ajratiladigan mablag'lar doirasida amalga oshiriladi;

2023-yil 1-yanvardan boshlab O'zbekiston Respublikasining respublika budjeti parametrlarida nazarda tutiladi.

Institut xodimlarining mehnatiga haq to'lash shartlari budjet mablag'lari hisobidan fundamental, amaliy tadqiqotlar va innovatsion ishlarning ilmiy-texnik dasturlarini amalga oshirishda qatnashuvchi ilmiy-tadqiqot muassasalari ilmiy va rahbar xodimlarining bazaviy lavozim maoshlariga tenglashtiriladi.

11. Belgilansinki:

Institut Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti Surxondaryo ilmiy-tajriba stansiyasining huquqlari, majburiyatlari va shartnomalari bo'yicha huquqiy vorisi hisoblanadi;

Institutning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va modernizatsiya qilish bilan bog'liq xarajatlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 11-avgustdagi "Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki hamda Xalqaro taraqqiyot uyushmasi ishtirokida "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish" loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4803-son [qarori](#) doirasida amalga oshiriladi.

12. Institut faoliyatini moliyalashtirish manbalari etib quyidagilar belgilansin:

Institutning bino va inshootlarini saqlash, shuningdek, uning xodimlari (ilmiy xodimlardan tashqari) mehnatiga haq to'lash uchun O'zbekiston Respublikasining respublika budjetidan